O‘QUVCHILARNING KUN TARTIBINI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYASI

Dusanov Noryigit Ernazarovich
Pedagogika fakulteti dotsenti
Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika Instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.14604932

ANNOTATSIYA

“O‘quvchilarning kun tartibini to‘g‘ri tashkil qilish texnologiyasi” mavzusidagi maqolada zamonaviy jamiyat psixologik jihatdan insoniyat oldiga o‘z taqdirini o‘zi belgilash bo‘yicha tobora murakkab vazifalar qo‘yayotgani, ijtimoiy sharoitlarning xilma-xilligi, ta’lim faoliyatining o‘ta murakkab va ziddiyatli jarayonlari, bu ta’lim ishlarining zamonaviy murakkab texnologiyalari, ayniqsa, yoshlar hissa qo‘shish zarurligining foydali tomonlari muhokama etiladi.

KALIT SO‘ZLAR

kun tartibi, jamiyat, insoniyat, murakkab, ochiq ijtimoiy muhit, talab qilish, rag‘batlantirish, jazolash, hissiy ta’sir, jazolash, texnologiya, uzviylik, izchillik, normativlik, universallik.

АННОТАЦИЯ

В статье «Технология правильной организации распорядка дня студентов» обсуждаются такие вопросы, как все более сложные задачи самоопределения, психологически предъявляемые современным обществом человечеству, многообразие социальных условий, сложные и противоречивые процессы образовательной деятельности, полезные аспекты современных комплексных технологий воспитательной работы, важность содействия в этом молодежи.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

распорядок дня, общество, человечество, открытая социальная среда, спрос, стимул, эмоциональное воздействие, наказание, технология, согласованность, последовательность, нормативность, универсальность.

ABSTRACT

In the article “Technology for the correct organization of the student agenda,” psychological modern society presents humanity with increasingly

KEY WORDS

agenda, society, humanity, complex, open social

complex tasks of self-determination, a variety of social conditions, complex and contradictory processes of educational activity, and useful aspects of the need to promote modernity. The article presents complex technologies of educational work, especially with young people.

environment, incentive, emotional impact, punishment, technology, consistency, consistency, normativity, universality.

KIRISH. Zamonaviy jamiyat insoniyat oldiga o‘z taqdirini o‘zi belgilash bo‘yicha tobora murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur jabhada faqat faol, erkin, ijtimoiy yo‘naltirilgan, bilimli shaxsgina yuksak marralarga erishishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy tarbiya eng muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanayotganligi bejiz emas. Ochiq ijtimoiy muhit ko‘pincha bolalar va o‘smirlarga har doim ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydigan omillarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy sharoitlarning xilma-xilligi ta’lim faoliyatini o‘ta murakkab va ziddiyatli jarayonga aylantiradi. Bu ta’lim ishlarining zamonaviy murakkab texnologiyalarini sinchkovlik bilan o‘rganish, tadqiq etish va ishlab chiqarishni talab qiladi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, maktab o‘quvchilarining kun tartibini oqilona tashkil etishda barcha tarbiyaviy kuchlar va ta’sirlarning uyg‘unligi bolaning har tomonlama barkamol rivojlanishiga hamda bo‘sh vaqtini yanada ongli tartibga solishga yordam beradi.

O‘quvchilar kun tartibining to‘g‘ri tashkil qilinganligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘quvchilarning shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy, mehnat, jismoniy rivojlanishining xususiyatlari va ularning sog‘ligini saqlash madaniyati;
- farzand va ota-onalar munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘quv va ta’lim jarayonida ota-onalarning ishtirok etish darajasi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. L.V.Vigotskiy hayot rejalari insonning ichki dunyosini egallashning ko‘rsatkichi deb hisoblagan va ularni haqiqatga moslashish tizimi sifatida qaragan [1. 34-b.]. O‘smir yoshlarning kun tartibini to‘g‘ri rejalashtira olishi o‘zini o‘zi rivojlantirishda vazifalarni qo‘ya olish va uni amalga oshirish darajasini o‘z ichiga oladi. O‘quvchining kun tartibini uning shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi yaxlit ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rishimiz mumkin. Vaqtni boshqarish muammosi tor ma’noda o‘z vaqtini ijtimoiy talablar va shaxsiy manfaatlarga muvofiq tashkil etish qobiliyati bilan bog‘liq. O‘z kun tartibiga rioya qilayotgan har bir o‘smir kelajakka qanday maqsadlar qo‘yishini, ularga qanday erishishini va buning uchun qanday ob’ektiv va sub’ektiv resurslar mavjudligini bilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktab o‘quvchilarining kun tartibini samarali tashkil qilishga bevosita ta’sir ko‘rsatish usullari quyidagilardan iborat:

- shaxs ongini shakllantirish usullari (og‘zaki ma’ruzalar, suhbatlar);
- xulq-atvorni rag‘batlantirish usullari (talab qilish, rag‘batlantirish, hissiy ta’sir, jazolash);
- faoliyatni nazorat qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash usullari (so‘rov, o‘z-o‘zini baholash, kuzatish va h.k) [2].


Tadqiqot natijalari asosida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini ijtimoiy foydali jarayonga aylantirish texnologiyasi ishlab chiqildi (1-rasm).

<table>
<tr><td colspan="7">O‘smir-yoshlarning ijtimoiy qimmatli bo‘sh vaqtdan individual tarzda mazmunli foydalanishiga erishish</td></tr>
<tr><td colspan="7">Bo‘sh vaqtni tashkil qilish va boshqarish tamoyillari</td></tr>
<tr><td>Tashabbuskorlik</td><td>Izchillik</td><td>Muloqotning norasmiyligi</td><td>Intensivlash-tirish</td><td>Ijodkorlik</td><td>O’z-o‘zini boshqarish</td><td>Muvaffaqiyat</td></tr>
<tr><td colspan="7">Tarkibiy qismlar</td></tr>
<tr><td colspan="2">Aksiologik komponent</td><td colspan="2">Kognitiv komponent</td><td>Axborot kommunikativ</td><td colspan="2">Ijodiy komponent</td></tr>
<tr><td colspan="7">Funksional komponentlar</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ixtiyoriylik</td><td colspan="2">Mo‘ljalli</td><td>Tashkiliy</td><td colspan="2">Gnostik</td></tr>
<tr><td colspan="7">Bo‘sh vaqtni samarali tashkil qilish va boshqarish shartlari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Motivatsion bosqich</td><td colspan="2">Konstruktiv bosqich</td><td>Faol bosqich</td><td colspan="2">Refleksiya bosqichi (o‘z-o‘zini baholash)</td></tr>
<tr><td colspan="7">Bo‘sh vaqtni samarali tashkil qilish va boshqarish usullari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Oilaviy tarbiyaning tipologik xususiyatlarini hisobga olish</td><td colspan="2">O‘quvchi faoliyati va xulq-atvorini rag‘batlantirish usullaridan foydalanish</td><td>O‘quv, o‘yin, mehnat faoliyat turlarining oqilona almashishini ta’minlash</td><td colspan="2">Oila va maktabning faol hamkorligini ta’minlash</td></tr>
<tr><td colspan="7">Bo‘sh vaqt faoliyati rivojlanishining asosiy bosqichlari</td></tr>
<tr><td colspan="3">I bosqich</td><td colspan="4">II bosqich</td></tr>
</table>

<table>
<tr><td colspan="2">Iste’mol darajasidan (bilim to‘plash, ko‘nikmalarni egallash)</td><td colspan="2">Ijodkorlik darajasigacha</td></tr>
<tr><td colspan="4">Axloqiy fazilatlarning shakllanishi</td></tr>
<tr><td>Yetakchilik</td><td>Tashkilotchilik</td><td>Vatanparvarlik</td><td>Muloqot</td></tr>
<tr><td colspan="4">Bo‘sh vaqtni foydali faoliyatga aylantirish madaniyatini shakllantirish jarayonining mezon va ko‘rsatkichlari</td></tr>
<tr><td>Motivatsion qiymat</td><td>Axborot va diagnostika</td><td colspan="2">Hissiy</td><td>Ijodiy</td></tr>
<tr><td>O’smir-yoshlarning bo‘sh vaqtga qadriyatli munosabati</td><td>Ijtimoiy foydali faoliyat turlari haqidagi bilimning mavjudligi va o‘z qobiliyatlariga baho bera olish ko‘nikmalarining shakllanishi</td><td colspan="2">O‘quvchining ijodiy, adekvat o‘zini-o‘zi baholashi va faoliyati natijalariga ijobiy hissiy holat</td><td>Bo‘sh vaqt faoliyatini amalga oshirishda ijodiy yo‘nalganlik va faoliyatda o‘ziga xoslik</td></tr>
<tr><td colspan="4">Bo‘sh vaqtni tashkil qilish madaniyatning shakllanish darajasi (yuqori, o‘rta, past)</td></tr>
<tr><td colspan="4">Natija: O‘sib kelayotgan o‘smir-yoshlarda vaqtni samarali tashkil qilish qobiliyatining shakllanishi</td></tr>
</table>

1-sxema. O‘quvchi bo‘sh vaqtini ijtimoiy foydali jarayonga aylantirish texnologiyasi

Tahlil va natijalar. O‘quvchi bo‘sh vaqtini ijtimoiy foydali jarayonga aylantirish texnologiyasi bo‘sh vaqtni tashkil qilish tamoyillari, tarkibiy qismlari, funksional komponentlari, bo‘sh vaqtni samarali tashkil qilish shartlari va usullari, bo‘sh vaqt faoliyati rivojlanishining asosiy bosqichlari, axloqiy fazilatlarning shakllanishi, bo‘sh vaqtni foydali faoliyatga aylantirish madaniyatini shakllantirish jarayonining mezon va ko‘rsatkichlari, bo‘sh vaqtni tashkil qilish madaniyatning shakllanish darajasi kabi komponentlar pirovard natijaga, ya’ni o‘sib kelayotgan o‘smir-yoshlarda vaqtni samarali tashkil qilish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Texnologiya uzviylik, izchillik, normativlik va universallik tamoyillariga asosan yaratilgan



2-sxema. O‘quvchi bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilish jarayonini pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayoniga mas’ul sub’ektlar va bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil qilish algoritmi

Tahlil va natijalar. O‘quvchi kundalik tartibini oqilona tashkil qilinishining individual-shaxsiy komponentida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning ma’naviy rivojlanishiga ham katta e’tibor qaratiladi. Bunda ota-onalar, bolalar, o‘qituvchilar ishtirokida bolalarning iste’dodlari, qobiliyatlarini

ochish, rivojlantirish uchun qulay muhitni yuzaga keltirish uchun shart-sharoitlar yaratish (turli tadbirlar va tanlovlar) ko‘zda tutiladi. Yoshlarning bo‘sh vaqtidan qanday foydalanishi davlat strategiyasining o‘ziga xos ko‘rsatkichi bo‘lib, uning yechimi bilan ma’lum darajada ta’lim, madaniyat, huquq-tartibot va huquqni muhofaza qiluvchi organlar shug‘ullanishi lozim. Yoshlar hayotida bo‘sh vaqt va uning namoyon bo‘lishining turli shakllari o‘z-o‘zini anglashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Afsuski, bo‘sh vaqt faoliyat sohasining yuqorida qayd etilgan barcha afzalliklari hali yoshlarning u yoki bu turmush tarzining doimiy, odatiy ko‘rsatkichlariga aylangani yo‘q. Aksariyat hollarda madaniyat va dam olish markazlari o‘z faoliyatini yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib emas, faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga tayangan holda quradi [3. C. 220-223].

Tadqiqotda o‘quvchi bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilish jarayonini pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayoniga mas’ul sub’ektlar va bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil qilish algoritmi ishlab chiqildi (2-rasm).

Xulosa va takliflar. Umuman, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini oqilona (muvaffaqiyatli) tashkil qilish texnologiyasini amalga oshirish kompleks va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayondir. Bunda dastlab ijtimoiy-pedagogik komponent sifatida psixologlar, valeologlar, fan o‘qituvchilari shifokorlarning ma’lumotlariga asoslanib, o‘smir-yoshlarning jismoniy va aqliy rivojlanish darajasini aniqlash asosida ularning yosh hamda individual xususiyatlari hisobga olinishi va kun tartibiga tegishli tuzatishlar kiritilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Агаджанян Н.А., Торшин В.И. Экология человека: Избранные лекции. – М.: Экоцентр, 1994. – 256 с.
2. Розова И.Н. Проблема организации свободного времени школьников в г. Москве // Таврический научный обозреватель. WWW/тавр/ссиенсе №5(10). – Май 2016.
3. Попова А.С. Сфера досуга молодёжи в современном мире / А.С.Попова. – Текст: непосредственний // Молодой ученый. – 2014. – №11(70). – С. 220–223. – УРЛ:ҳттпс://молуч.ру/арчиве/70/12057/(дата обрашения: 02.01.2023)
4. Воловик А.Ф., Воловик В.А. Педагогика досуга: Учебник. – М.: Московский психолого-социальный институт, изд. Флинта, 1998. – 240 с.
5. Требугов Б.А. Свободное время молодежи: сущность, типология, управление. – СПб., 1991. – 159 с.